

O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI, UNING TARIXI VA RIVOJLANISHI

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Musiqa madaniyati fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi Toshken, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy musiqa ijodi, uning jabhalari, ixlosmandlari hamda ijrochilari to'g'risida so'z boradi. O'zbek folklor ijodi namunalarini to'plash va tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari o'r ganiladi.

Kalit so'zlar: Musiqa, folklor, urf-odat, ijrochilik, skif, sak-massagetlar, do'mbrakash, dutorchilar.

Xalqimizning urf-odatlari va milliy an'analari umrboqiy, mehridaryodir. Yurtimiz go'shalarida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnatga oid an'analalar, keksalarning ko'ngil suvlaridan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu qo'shiqlar mavjud. Xalq marosimlari chuqur singib ketgan ko'p asrlik qadriyatlar, ma'naviyat ko'zgusiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarning asrlar davomida yaratgan va iijo etib kelgan faoliyati natijasida shakllanib, mustahkamlanib va o'sib kelgan qadimiy urf-odatlari va an'analarni o'rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada chuqurroq anglash, tushunish imkonini beradi.

Yurtimiz istiqlolga erishgandan so'ng qadim ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni qayta tiklash, xotira sahifalaridan o'chib ketgan an'analalar-urflarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

O'zbek xalqining urf-odat, an'ana va marosimlarga alohida e'tibor berilishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda an'ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni chuqurroq tushuntirish milliy istiqlol g'oyasini keng omma orasiga yoyishnig ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqi boy, o'ziga xos ko'pqamrovli va seruslub musiqiy merosiga ega. O'z tariximizni, milliy urf-odat va an'analarmizni, ma'naviy merosimizni qunt bilan o'rganish va undan xabardor bo'lib bahra olish har birimizning eng muhim burchlarimizdan biridir. Xalqimiz uzoq kutilgan mustaqillikka erishishi munosabati bilan qadimiy an'analarmizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va milliy merosimizni atroflicha o'rganish imkoniyati vujudga keldi.

Musiqa san'ati qadim-qadim zamonalardan buyon Sharq xalqlari ijtimoiy hayotining bo'linmas bir qismi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uning yo'nalishlari, janrlari, shakllari o'zbek xalqining ajdodlari hisoblangan hozirgi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Eron va Sharqiy Turkiston hududida yashagan qadimgi

so'g'diyilar, xorazmiylar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar ijodiy faoliyati va tafakkurining mahsuli sifatida asrlar davomida shakllanib, sayqallanib, rivojlanib kelgan. Shuningdek, bu san'atning rivoj topishiga Xitoyning shimoliy hududlaridan to sharqiy Yevropagacha cho'zilgan ulkan mintaqaning dasht, o'rmon-dasht, tog'li o'lkalarida yashagan (skif, savromat-sarmat, sak-massaget) xalqlarning ta'siri ham nihoyatda katta bo'lganligini isbotlovchi dalillar bugungi kunda yetarlidir.

Musiqa san'atining tarixiy rivojlanish jarayoni ilk bor tabiat hamda atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqealarni anglashga harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj sifatida, ilk mifologik tassavur va taassurotlar ta'sirida kechib, keyinchalik kohinlar boshchiligidagi tashkil etilgfan turli xil marosimlarning ruhiy-ma'naviy mazmuniga aylangan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, musiqa san'atining takomillashib borishi hududlarda madaniy hayotning rivoj topishi bilan bog'liq bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi yigirmanchi asr oxiri va eramizdan avvalgi o'ninchi asr boshlariga borib taqaladi. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, turli xil kasb-hunarlarning paydo bo'lishi va shakllanishi, xalq bayramlari, diniy marosimlar, shuningdek, saroydagi turli tadbirdi o'tkazish uchun xizmat qiladigan maxsus tayyorgarlikni o'tagan kishilar, ya'ni musiqachilar qatlaming shakllanish jarayonini tezlashtirdi.

Umumiy maqsad asosida birlashgan musiqachilar, sozandalar, raqqosalar, umuman, butun san'at ahli ajdodlari tomonidan qoldirilgan musiqiy-ma'naviy merosni o'rganib, boyitib, uni ustoz-shogird an'analarini davom ettirgan holda keyingi avlod vakillariga yetkazish yo'lida jonbozlik ko'rsatganlar. Bunday toifadagi kishilar faoliyatining dastlabki kurtaklari esa o'z davrining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kohinlar jamoasi muhitida ildiz otdi. Insonning ichki ruhiy kechinmalari, yashash, hayot, o'lim bilan bog'liq mushohadalari, kundalik munosobatlar doirasidagi voqea va hodisalarga nisbatan ta'sir ostidagi mulohazalarining yaqqol ifodasi musiqiy ohanglar sadosi tarzida, jilolanib baralla yangray boshladi. O'z navbatida musiqa xalqning ruhiy-hissiy tuyg'ulariga ta'sir etishi kohinlar uchun mafkuraviy qurol, ya'ni ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng qadimgi ulug' qadriyatlarimizni tiklash, shu jumladan yuzlab badiiy hamda musiqiy merosimizni turli yo'llar bilan o'rganish va undan bahra olish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berildi. Bugungi kunda eskirgan mafkura va qarashlar ta'siri ostida va hukumat e'tiborsizligi oqibatida anchagina o'z qadri va o'rnini yo'qotgan, ayrim misollarda esa deyarli xotiramizdan o'chgan o'ziga xos milliy-musiqiy qadriyatlarimiz o'z qaddini tiklay boshladi. Turli xil mahalliy an'analar, badiiy jihatdan mukammal bo'lgan aytim hamda cholg'u kuylardan tashkil topgan xalq musiqa ijodiyoti namunalari nufuzli xalq marosim-u bayramlari va muhim sanalarga bag'ishlangan tantanalarda yangray boshladi. Mamlakatimizda yillar davomida o'tkazilib kelayotgan Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami, "O'zbekiston – Vatanim manim" Respublika qo'shiq bayramlari bilan bir qatorda alla, lapar, yalla, ashula ijrochilarining viloyat, Respublika ko'rik tanlovlari va boshqa ommaviy tadbir (bayram, festival va tanlov)lar buning yaqqol misoli bo'la oladi.

O'zbek xalq qo'shiq va musiqiy namunalari o'zining xalqchilligi, g'oyaviy barkamolligi va qiziqarli ekanligi bilan bir qatorda xalqning sabr-matonati, yengilmas irodasi, keljakka bo'lgan ishonchi, shodiyona,adolat, tinchlik haqidagi tasavvurlarini yorqin namoyon eta oladi.

O'zbek xalq musiqa ijodi ham qadim zamonlarda xalq og'zaki ijodi negizida paydo bo'lган. Xalq orasida tug'ilgan va o'sgan iste'dodli hofizlar, san'atkorlar, baxshi-yu bastakorlar xalqning yashash tarzini, orzu-umidlarini, qalblarida yashirinib yotgan tuyg'ularini o'z qo'shiq-kuylarida mohirona ijro etishgan.

Xalq musiqasi namunalari xalq badiiy ongingin mahsuli sifatida hayot kechirib, yakka holatda havaskor xonanda sozanda tomonidan, shuningdek, ansambl yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Xalq musiqasi milliy musiqa uslubining asosi, bastakor va kompozitorlar ijodi, ommabop musiqaning muhim manbaidir. Musiqiy folklor, o'z navbatida, professional musiqa san'ati bilan o'zaro chambarchas aloqada rivojlanadi. Hozirgi davrda xalq musiqa namunalarining qadimiy va o'zgartirilgani, shuningdek, ular asosida yangidan yaratilganlari mavjud.

Xalq musiqasi durdonalari shu xalq badiiy ong va tafakkurining mahsuli sifatida yashab, yakka holda havaskor xonanda (guyanda, xalfa va boshqalar), sozanda (do'mbrakash, dutorchi kabi) tomonidan, shuningdek, ansambl yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Xalq musiqasi o'z navbatida, milliy musiqiy uslubimizning negizi, ya'ni bastakorlarimiz hamda kompozitolarimiz ijodi hamda ommabop musiqa mahsulidir. Musiqiy folklor kasbiy musiqa san'ati bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. Bugungi kunda xalq musiqa namunalarining qadimiy va o'zgartirilgani, shuningdek, ular asosida yangidan yaratilganlari mavjud.

Mumtoz musiqa namunalari har tomonlama mukammalligi, ijro usulining o'ziga xosligi bilan folklor musiqasidan farq qiladi. Mumtoz musiqa alohida bastakor tomonidan yaratilib, mahoratli xonanda yoki sozanda ijrosida kuylanadi.

O'zbek xalqining jahon sahnasida tutgan o'rni, insoniyat rivoj topishiga qo'shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko'rindi. O'zbek folklorini o'rganish, yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish hamda ommaga tarqatish ishlari yigirmanchi asr avvalidan boshlangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Ushbu xayrli va manfaatli harakatni boshlab bergen birinchi omil Mustaqilligimiz edi. 1990-yilda Navro'z bayramining umumxalq tantanasi darajasida nishonlash an'anasing boshsanishi, «Alpomish» dostonining 1000 yillik to'yi va eng ulkan tarixiy voqeа O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi farmonining e'lon qilinishi va bu ishning amalga oshishi til, adabiyot qatorida o'zbek folklorining ham har tomonlama o'rganish ishlariiga keng imkoniyatlар yaratdi. «Folklorshunoslik va dialektologiya» kafedrasining ushbu universitet tarkibida tashkil topishi fikrimizni dalillaydi.

I.Karimovning 2008-yil e'lon qilingan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida: «Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz 3xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir» Xalq ijodi, xususan, og'zaki ijod namuna yurtboshimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek ajdodlarimiz tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma'naviy xazina hisoblanadi.

Bu xazina boyliklarini yosh avlodning ma'nан kamolot topishi yo'lida xizmat qildirish soha xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlaganidek: "...Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrabavaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O'zbek musiqa tarixi. T.:2018 y.
2. Nurmatov H, Yo'ldosheva N. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.
3. Solomonova T. O'zbek musiqasi tarixi. – Toshkent. 1984.
4. Scientific – Methodical Journal "Oriental Art and Culture". – Tashkent, 2023.